### КИРИШ

Таълим ва таълим жараёнида боланинг ривожланиши муаммоси Ёш даврлари ва педагогик психология фанининг асосий масалаларидан биридир. Таълим ва ривожланиш муаммосига доир қатор назариялар ишлаб чиқилган бўлиб, улардан бири:

Ақлий хатти-ҳаракатлар, билимлар, малака ва кўникмаларини босқичма-босқич ривожлантириш назарияси (П.Я.Галперин).

П.Я.Галперин назарияси бўйича билимларни ўзлаштириш жараёни олти босқични бошидан кечириб, уларга:

1. Мотивация.
2. Тушунтириш.
3. Моддий формадаги хатти-ҳаракатларни бажариш.
4. Баланд овозда хатти-ҳаракатлар ва вазифаларни бажариш.

В.В.Давидов назарияси: Ушбу назария кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг илмий тушунчаларни ўзлаштиришини ташкил қилади. Бунда ўқувчилар томонидан таълим жараёнида назарий тушунчалар тизимини ўзлаштирилиши лозим бўлиб, бу ўз ўрнида хусусийдан умумий билимларга ўтилишини таъминлайди.

Қатор назариялар муаммоли таълим билан боғлиқ бўлиб, Л.В.Занков ва А.М.Матюшкин томонидан олиб борилган тадқиқотлар таълимда муаммоли дарсларни ташкил этишга қаратилгандир.

## АСОСИЙ ҚИСМ

Таълимнинг психологик асослари муаммоси кўпгина масалаларни қамраб олади. Таълимнинг муваффақияти бир қатор психологик омилларга боғлиқ бўлади. Аввало ўқувчининг ўқишга бўлган муносабатига тўхтайлик. Бу муносабат диққатда, ҳис-туйғуларда, қизиқишлар ва иродада, шунингдек, шахснинг тутган ўрни ва фаоллигида намоён бўлади. Таълим мотивацияси ўқувчиларнинг ўқув материални яхшироқ ўзлаштиришига шахсий қизиқишини англатади. Ўқитувчининг фақат моддий қизиқишларини қондириш, ёки ишсиз қолмаслик, қисқаришга тушмаслик учунгина таълим бериши, муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси билан боғлиқ бўлиб, бунда педагогик фаолиятда яхши натижаларга эришиш мумкин эмас. Таълим маҳсулдорлигини оширишдаги дастлабки вазифа уни чуқур ва кўп мотивацияли жараёнга айлантиришдир. Ўқитувчи ўқувчиларни ўқитиш жараёнида ўз ҳаётининг асосий мазмуни ва мақсадини кўра бошлаганида таълим самарали бўлади. Таълим жараёни аввало ўқувчилар диққатини йўлга солишни талаб этади. Дарсларда кўргазмаларни қўроллардан, ахборот технологиялари воситаларидан фойдаланиш таълим олувчида ихтиёрсиз диққатни юзага келтиради. Таълим жараёнида таълим берувчининг вазифаси дарсда ишлаш ҳолатини юзага келтиришига эмас, балки ўқувчиларнинг дарсда ўтиладиган материални идрок этишга тайёр туришларини кузатиш ҳамдир. Дарс жараёнида ўқувчиларнинг диққати ўзгариб туради. Ўқитиш жараёнида бу қонуниятларни назарда тутиш ва ўқувчилар диққатини материалнинг асосий жиҳатларига жалб этиш ҳамда уларни такрорлаш керак. Таълим жараёнининг самарадорлиги кўп жиҳатдан ўқитувчи томонидан бериладиган кўрсатмаларга ҳам боғлиқ. Ўқитувчининг роли шандан иборатки, у ўқувчиларга тегишли кўникмани ҳосил қилиши, нимани вақтинча умрбод эсда олиб қолиши кераклигини, нимани бутунлай эсда олиб қолмасдан, фақат тушуниб олиш кифоя қилишини, нимани сўзма-сўз эсда олиб қолиш зарурлигини кўрсатиб ўтиши лозим. Кузатишлар кўрсатадики, бундай кўрсатмалар берилмаганда, ўқувчиларда кўпинча нотўғри тасаввурлар вужудга келади. Ўқитишнинг эмоционаллиги таълимнинг муваффақиятлилигини таъминловчи омиллардан биридир. Таълим жараёни эмоционал жараён. Агар ўқувчиларга берилган ахборот уларда ҳеч қандай ҳис-туйғу уйғотмаса, уни ўқувчилар яхшилаб эсда олиб қолмайдилар. Гап ўқувчиларнинг психик ҳолатлари, яъни уларнинг муайян бир пайтдаги кечинмалари ҳақида ҳам бориши керак, албатта. Улардаги қувончли, оптимистик кайфият ўқув фаолиятини жуда самарали қилади. Ўқувчилар эмоционал руҳдаги материални дурустроқ ўзлаштириб оладилар. Ўтказилган тажрибалар ўқувчилар ҳеч қандай ҳис-туйғу уйғотмайдиган материалга қараганда, эмотсионал руҳдаги материални яхшироқ эслаб қолишларини кўрсатади. Ўқитувчи ўқув жараёнининг эмоционал томони ҳақида ғамхўрлик қилиши керак. Бу муаммо жуда муҳим аҳамиятга эга. Чунки, биринчидан,

таълимнинг мазмуни ниҳоятда мураккаблашиб, ҳажми эса ғоят катталашиб кетган. Унинг муваффақиятли ўзлаштирилишига эришиш учун ўқувчиларнинг ўқув фаолиятини кучайтириш лозим. Ижобий туйғулар ўқув меҳнатининг самарадорлигига кучли таъсир этади. Ҳафсала билан бажарилган беғараз мунозара пайдо бўлади, баҳслашилади, бефарқ қараган ёки ундан ҳам салбий муносабатда бўлган ишга эса, ҳеч қандай ҳафсала бўлмайди. Жамиятимиздаги меҳнат – ҳақиқий ижод, қувонч манбаи. Мактаб ўқувчиларида ўқув меҳнатига ижобий муносабат уйғотиб, меҳнатнинг ҳақиқий ижодга, қувонч манбаига айланишига қўмаклашиши керак. Қадимда греклар жуда ажойиб иборани қўллаганлар: “Ўқувчи – тўлдирилиб турилиши керак бўлган идиш эмас, балки ёқиб турилиши лозим бўлган машъалдир”. Бу фикрнинг тагида чуқур маъно бор. Зеро, ўқитувчи биз юқорида таъкидлаб ўтган таълим методлари: муаммоли таълим, қисман изланиш методи ва тадқиқот методларидан кенг қўлланиши керак. Таълим жараёнини бугунги кундаги асосий талабларидан бири эркин фикрловчи, мустақил тафаккурга эга бўлган шахсни шакллантириш бўлиб, юқорида айтиб ўтилган методлардан фойдаланиш учкунлардан катта машъаллар пайдо бўлишини таъминлаб беради. Психологияда қизиқиш- бу шахснинг ўзи учун қимматли ёки ёқимли бўлган муайян нарса ёки ҳодисаларга муносабатидир. Қизиқишлар шахснинг муҳим ва индивидуал хусусиятларидан бири бўлиб ҳисобланади. Қизиқишлар ўқувчилар ҳаётида катта рол ўйнайди. Улар ўқув фаолиятини фаоллаштирувчи асосий турткилар – мотивлардир. Қизиқишлар мактаб ўқувчисига фан асосларини дурустроқ ўзлаштириб олишларига, ақлий қобилиятларининг ўсишига, билим доирасининг кенгайишига имкон беради ва ўз иродаларини мустаҳкамлашга ёрдам беради. Ирода бу шахснинг ўз олдига қўйган мақсадининг аниқлиги, уни амалга ошириш учун интилиши, мақсад йўлида маълум бир қарорга келиш тезлиги ва уни ўз вақтида ижро этиши билан белгиланадиган сифатидир.

### ХУЛОСА

Таълим жараёнида ўқув материалига бўлган диққатнинг барқарор бўлишида иродавий зўр беришнинг аҳамияти ниҳоятда каттадир. Таълимда ирода ўқувчида мактаб ва уйда ўтказиладиган машғулотларга тайёр туришда намоён бўлади. Ўқув материални ўрганиш, эслаб қолиш ва ўқувчининг иродавий зўр беришига боғлиқ. Ирода ўқувчининг фикрлаш фаолиятларида ва ўқув материални ўзлаштиришида акс этади. Ўқув муассасасидаги таълим жараёнининг ўзи ўқувчилардан иродани ўстириш омилларидан биридир. Бунда ўқувчиларнинг кундалик режими, ўқиш ва ақилна дам олишини бир-бири билан тўғри алмаштириб туриш катта рол ўйнайди. Таълим жараёнида билиш жараёнларини шакллантиришга алоҳида эътибор бериш лозим. Зеро, билиш жараёнлари жуда мураккаб фаолият бўлиб, унда жонли мушоҳададан мавҳум тафаккурга, мавҳум тафаккурдан эса амалиётга ўтилади, ана шундан сўнг объектив ҳақиқат билиб олинади. Бу орқали идрок қилиш жараёнига ўтиш

бошланади яъни идрок нараса ва ҳодисаларни сезги органларига таъсир этиши натижасида уларнинг киши психикасида яхлит образини пайдо бўлиши бўлиб, идрок этиш жараёни эса таълимда турли формаларда ўқитувчининг оғзаки ҳикоя қилишида, суҳбат ўтказишда, маъруза ўқишида, кинодарс, телевизион парча, схемалар ва кўргазмалар қуроллар кўрсатиш, экскурсиялар ўтказиш, ўқувчининг ўзига дарсликлар ҳамда бошқа қўлланмаларини ўқитиш тарзида ўтиши мумкин.



## XIX ASRNING OXIRI VA XX ASRNING BOSHLARIDA JADIDLARINING YANGI USUL MAKTABLARI FAOLIYATI

**Hasanova Mavjuda G`aniyevna**  
*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*  
*Ilmiy rahbar*

**Ochilov Alisher To'lis o'g'li**  
*t.f.f.d.(PhD)*

XX asrda Turkiston o'lkasida Jadidlar tomonidan xalqning ma'naviyatini bouitish, o'rtaslariga xos qoloqlik va xurofotlardan ozod etish, demokratiya tizimini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish kabi g'oyalari ilgari surilgan. Buning uchun avvalo yoshlar tarbiyasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etgani holda, barcha taraqqiyparvarlarning e'tibori va e'tirofi markazida bo'lgan.

Shu maqsadda yangi usul maktablari tashkil etilgan. Bu turdagi maktablar - musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilidan xat-savod o'rgatgan va g'oyalarni ilgari surgan o'quv yurtlari demakdir. Dastlab Qirimning Bog'chasaroy shahrida 1884 yilda Ismoilbek G'aspirali tomonidan tashkil etilgan va u "Usuli savtiya tadrijiya" ya'ni, rivojlanuvchi tovush usuli maktablari bo'lgan. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug'dirgan.

Ko'p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko'nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta'lim berayotgan maktablar ochila boshlandi. 1893 yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo'minxo'ja Vobkendiy va G'ijduvonlik Domla Fozil sa'y-harakati bilan dastlabki yangi usul maktablari ochildi. Turkiston hududida keying yangi usul maktablari 1898 yil Qo'qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi Paxta zavodi huzurida tatar vulliflari tomonidan ochilgan.

Mahaliy aholi tomonidan bu davrda bu turdagi maktablar "No'g'oy maktab" deb atalgan. 1900 yildan boshlab Toshkentda Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shakuriy tashkil qilgan Yangi usul maktablari o'z ishini boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan.

1908 yil Buxoroda Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa Yangi usul maktabi ko'p o'tmay yopib qo'yilgan. Yangi usul maktablarida maktabxonadagi yakka o'qitish usulidan sinfga dars berishga o'tilgan. Sanflarda Geografiya xaritalari, Globus va boshqa shu turdagi ko'gazmali qo'llanmalar mavjud bo'lgan. Yangi usul maktablarida xat-savod bolalarning ona tilida tovush usuli - "Usuli savtiya" o'rgatilgan. Maktablar asosan 1-4 sinflardan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan.

1913-1914 o`quv yilidan ayrim joylarda ikki bosqichli tizim joriy qilina boshlanadi. Bu tizimdagi maktablar "Namuna maktablari" deb atalib, ularning birinchi bosqichi tahriziy, ya`ni, boshlang`ich sinflar, ikkinchi bosqichi Rusdiiy, ya`ni, "Yuqori sinflar" deb atalgan. Xususan, Abdurashidxonovning namuna maktabi Shakuriyning Samarqanddagi va A. Ibidiyevning Qo`qondagi maktabida Rusdiiy tipdagi sinflar ham ish boshlagan.

Shu bilan bir qatorda Yangi usul maktablarida bir qator dolzarb muammolar ham mavjud edi. Ammo ta`kidlash joizki, muammolarning aksariyati ularning faoliyatiga to`sqinlik qila olmagan. Masalan, ularning hech biri uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo`lib, ko`p hollarda xususiy maktablar uchun muallimning o`z uyidan yoki biror bo`sh turar joy binolaridan hamda ba`zi shaxslarning "Tashqi hovli"(XX asrning oxirlariga qadar mahalliy aholining turar joyi "Ichki hovli" va "Tashqi hovli" qismlaridan iborat bo`lgan)laridan foydalanilgan.

Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o`shishiga yordam berishidan cho`chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisoblashgan. Shuning uchun ularning faoliyatini bo`g`ib qo`yadigan turli choralar ko`rildi. Xususan, 1911 yilda mahalliy millat maktablarida (Rus-tuzem maktablaridan tashqari) o`quvchilar qaysi millatdan bo`lsa muallim ham shu millatdan bo`lishi kerakligi haqida qaror qabul qilindi.

O`uv jarayonidagi darslar muayyan maktab rahbari va muallimlar tomonidan tuzilgan o`quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. Masalan, A. Shakuriy o`z maktabining 1-2 bosqich sinflari uchun o`uv dasturi va rejasini Behbudiy bilan birga tuzgan. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy fanlar ham o`qitilgan. "Alifbe" kitobi bilan "Alifboyi Qur`oniy" ham o`rgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan Fizika, Kimyo, Geometriya, Arifmetika, Geografiya, ayrim maktablarda 4- sinfdan Rus tili ham o`qitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagi ikki bosqichli rus-tuzem maktabida o`tkazilgan va o`uvchilar bilimi 5 ballik tizim asosida baholangan.

Yangi usul maktablarida yuqori sinflar uchun Fizika, Kimyo, Geometriya kabi o`quv fanlaridan o`zbek tilida darslik, o`quv qo`llanmalari bo`lmagan. Muallimlar bu fanlar bo`yicha tatar, turk tillarida nashr etilgan qo`llanmalardan foydalanishga majbur bo`lishgan. Ayrim muallimlar o`zlari darslik yozib shu asosida ta`lim berganlar.

Saidrasul Saidazizov "Ustodi avval" (1902), Behbudiy "Risolai asbobi savod"(1904), "Risolai Jug`rofiya umroniy" (1905), Munavvarqori "Adibi avval", "Adibi Soniy"(1907), Abdulvohid Burhonov "Rahbari xat"(1908), Fbdulla Avloniy "Birinchi muallim" (1910) "Ikkinchi muallim"(1912), Rustambek Yusufbek o`g`li "Ta`limi avval", Ibidiyev "Ta`sil ul- alifbo" darsliklarini yozib nashr etishgan.

1904-1905 yillarda rus- yapon urushi, 1905-1907 yillarda bo`lgan 1- rus inqilobi, 1908- yilda Turkiyada bo`lgan Yosh Turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta`sir ko`rsatdi. Jadidlar o`z gazeta va jurnallari, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida

to'planishar edi. Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari-shoir-u yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar.

Jadidlar musulmon maktablarining ta'lim usuli dasturlarini isloh qilib yangi usul maktablarini ochishgan. 1900 yilda Toshkentda Munavvarqori tashkil qilgan yangi usul maktabi ish boshlagan. Keyinchalik u namuna maktabiga aylantirilib, unda 5-6 sinf kabi yuqori sinflar bo'lgan.

Turkistondagi dastlabki oliy o'quv yurti Turkiston xalq universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning 1918 yilda Toshkentda ochilishi ham jadidlar faoliyati bilan bog'liq. Munavvarqori Abdurashidxonov tashabbusi bilan 1918 yil 12-mayda Turkiston xalq universiteti tarkibida musulmon xalq dorilfununi tashkil qilinadi. 1919 yil Toshkentning eski shahar qismida Jadidlar tashabbusi bilan Turkiston xalq konservatoriyasining milliy (Eski shahar) bo'limi tashkil etildi.

Jadid ma'rifatparvarlarining milliy o'zlikni anglash borasidagi muhim ishlaridan biri yosh avlod ma'rifatida diniy ta'limga alohida e'tibor qaratishi bilan belgilanadi. Avvalambor, diniy ruhda yosh avlodning xatsavodini chiqarish, diniy e'tiqodni mustahkamlash, din tarixini bilishga alohida diqqat qildilar. Birgina o'quvchilar uchun islom dini tarixini o'rgatishga mo'ljallangan bir qator darsliklar yaratildi. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Havoiju-diniya" Abdulla Avloniyning "Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom", Abdurauf Fitratning "Muxtasar tarixi islom" kabi darsliklari shular jumlasidandir.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Shakuriylar xalqni tez va qisqa fursatda savodli qilish uchun yangi usul maktablarini tashkil qilishda ularning har biri o'z maktablari uchun dasturlar va dars jadvallari tuzib darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda ular diniy bilim berishdan tashqari, yozish, o'qish hisobni o'rgatish bilan bir vaqtda jug'rofiya, tibbiyot, fors, arab, rus tillarini o'qitishni yo'lga qo'yishdi.

Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Shakuriy xalq ommasining ko'proq yuqori qatlamini ziyoli qilish orqali o'z maqsadlarini amalga oshirishni maqsad qilgan bo'lsa, Abdulla Avloniy esa "ilm-ma'rifat shunday bir vositaki, uning yordamida butun bir ijtimoiy tuzumni yaxshi tomonga o'zgartirish mumkin, lekin buning uchun ma'rifat ishlariga hammaning manfaatlarini birga qo'yish kerak", degan barcha davrlar uchun dolzarb fikrni ilgari surishdi va anashuni hisobga olib maktablar tashkil etishdi.

Turkiston jadidlari tomonidan amalga oshirilgan bu kabi ta'limiy islohotlar, ayniqsa, shu masalaga yo'naltirilganligi bilan Ismoil Ga'spirali tomonidan ilgari surilgan Qrim jadidchiligidan qaysidir ma'noda farq qilar edi. Yangi usuldagi maktablar Qo'qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda, ularga tutash bo'lgan shahr va qishloqlarda tashkil etilganligining ham tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Sababi, bu shaharlar azal-azaldan ilm-ma'rifat maskani sifatida e'tirof etiladi. Shu asnoda, ko'hna tarix charxpalagida toblangan

xalqimizning bunday turdagi yangi usul maktablariga ehtiyojmandligi hech zamonda, hech qaysi bir tadqiqotchini ajablantirmagan.

Xulosa o`rnida shuni alohida e`tirof etish mumkinki, Jadidlar tomonidan Yangi usul maktablarining tashkil etilishi tom ma`noda millatning avvalo ma`naviy hayotini yuksaltirish asnosida kelgusida zamonaviy jamiyatda uning xalqaro darajadagi mavqeini yuksaklarga ko`tarishga qaratilgan edi. Ta`lim sohasidagi bu kabi islohotlar Chor hukumati matasaddilari va mahalliy diniy mutaasiblar tomonidan qoralanib ma`lum ma`noda ta`qib ostiga olingan bo`lsada, ular bu harakatlardan oz bo`lsada chekinishmadi, harakatdan to`xtashmadi. O`sib kelayotgan yosh iste`dodli yoshlarga Turkiston o`lkasining rivojida kelgusidagi harakatlantiruvchi asosiy kuchi sifatida qaralib, ularning bir qanchasi Turkiya va Olmoniya kabi xorijiy mamlakatlarga o`qishga yuborilganligi bir qator tarixiy manbalarda qayd etilgan.

## GANDBOLCHILARNI MUSOBAQA DAVRIDA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TASHKIL QILISH METODOLOGIYASI

**Choriyev Alimardon Farhodovich**

*Buxoro Davlat Pedagogika Instituti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada gandbolsport turiga gandbolchilarni tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish mavzusiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar va ilmiy maqolalardagi ma'lumotlardan foydalanib, tanlab olishda qo'llaniladigan maxsus jismoniy tayyorgarlikni baholovchi asosiy testlarishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *gandbol, sport, musobaqa, ko'nikma, Sport mahorati, maxsus mashqlar, murabbiylar, maxsus mashqlar, tezkorlik, tajriba natijalari.*

Zamonaviy gandbol sport musobaqalarida o'zaro raqobatning kuchayib borishi natijalarning to'xtovsiz o'sayotgani dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab sportchilarning barcha sifat va ko'nikmalarini ilmiy asosda shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Chunki, bugungi gandbol sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishish uchun sportchilar organizmi katta hajmli va o'ta shiddatli yuklamalarga tayyor bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, ko'p yillik sport tayyorgarligi jarayonida sportchi shu tayyorgarlik davrining qaysi bosqichida shug'illanishidan qat'iy nazar, qo'llaniladigan mashg'ulot (trinirovka) mashqlari yuklama jixatidan uning funksional va jismoniy imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim. Aks holda, ya'ni katta hajmli va o'ta shiddatli mashqlar zo'rma-zo'raki berilaversa, yosh gandbolchilar organizmiga zo'riqish alomatlari paydo bo'ladi. Agar shunday yo'nalishdagi mashg'ulotlardan foydalanish davom etaversa, nafaqat foydali sport natijasiga erishish mumkin, balki shug'illanuvchi organizmiga kasallik asoratlari kelishi ehtimoldan holi emas. Sport mahoratining yuksak bosqichi shunday ko'ngilsiz oqibatlar ro'y bermasligi uchun muayyan sport turiga dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlikka oid mashqlarni me'yorlab qo'llash tavsiya etiladi. Oydan-oyga, yildan-yilga mashg'ulot yuklamalarining hajmi va shiddati "zinapoya" sifatida emas, balki "to'lqinsimon" shaklda ortib borilishi maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy gandbolda maxsus mashqlar bilan bigalikda jismoniy sifatlar ham o'ta muhim harakat qobiliyatlari tarkibida mansub bo'lib, o'yin davomida yuz beradigan turli vaziyatlarda hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Har xil yo'nalishlarda to'psiz va to'p bilan raqib qarshiliklarini engib, tez, aniq va maqsadga muvofiq harakat qilish o'yin yoki uning ayrim lahzalari taqdirini belgilab berdi. Ma'lumki, yosh gandbolchilar sekin harakatlanganda ijro etiladigan o'yin malakasi texnikasi, koordinatsiyasi va aniqligi yuqori bo'ladi. Aksincha, jismoniy rivojlanishlari ortgan sari sport mahoratining bunday ko'rsatgichlari o'z samarasini susaytira boshlaydi. Binobarin, har bir murabbiy, ayniqsa BO'SM murabbiylari, o'z kasbiy-pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi istedodli yosh gandbolchlarni tayyorlash muammosining prinsipial jihatlaridan biridir. Mazkur ishning maqsadi

gandbol bilan endi shug'illanishni boshlagan 12-14 yoshli bolalarda maxsus mashqlar bilan bir qatorda tezkorlik jismoniy sifatlarni ixtisoslashtirilgan masqlar yordamida shakllantirish samaradorligini o'rganishdan iborat. Gandbolda darvozaga to'p kiritish usuli o'yin davomida ustivor sanalgan va samarali natija keltiruvchi eng unumli malaka bo'lib hisoblanadi. 12-14 yoshli gandbolchilarni tezkorlik va sakrovchanlik sifatlari qancha rivojlangan bo'lsa, shuncha to'p kiritish imkoniyati ortadi. Darhaqiqat, darvozaga sakrab to'p kiritishda tezkorlik va sakrash koordinasiyasi to'p kiritish texnikasiga ixtisoslashmagan bo'lsa, natija samarasiz bo'lish mumkin.

Shuning uchun maxsus mashqlar hamda tezkorlik va sakrovchanlik sifatlarni gandbolga xos hususiyatga moslashtirib rivojlantirish nafaqat sport mahoratini takomillashtirish guruhlarida kata rol o'ynaydi, balki bunday ixtisoslashtirilgan sifatlarni dastlabki o'rgatish bosqichidanoq boshlab shakllantira borish muhim ahamiyat kasb etadi. Sport o'yinlarida texnik malakalarni aniq, tez va samrali ijro etish, taktik kombinasiyalarni vaziyatga mos mo'ljallangan maqsad sari amalga oshirish har bir sport o'yini turinining o'ziga hos hususiyatga mos jismoniy sifatlarni bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan. Sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol va gandbol) hususiyatiga mos jismoniy sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan ko'pgina mashqlar majmualarini alohida-alohida guruhlashtirib qo'llashni tavsiya etishgan. Jumladan, 1 –guruh mashqlari o'yin qoidalari doirasida ijro etiladi. 2-guruh-o'yin qoidalari doirasidan tashqari vaziyatda, 3-guruh-mashqlari yakuniy zarba yoki to'p otish (gandbol, basketbol) bilan tugamaydi (shug'illanuvchilarfaqat bir-biriga to'p uzatishadi). 4-guruh har bir shug'illanuvchi yakka holda o'z mahoratlarini shakllantiruvchi mashqlarni bajaradi. V.I.Izaak e'tiborni jalb qiluvchi ilmiy g'oyani ilgari surgan. Uning fikriga ko'ra, gandbolchi tomonidan mashg'ulot va musobaqa davomida ijro etiladigan harakat malakalari o'z mohiyati va tuzilishi (srukturasi) jihatdan bir-biridan talaygina farq qilar ekan. Demak, muvofiq malakalar mashg'ulot va musobaqa davomida turlicha maxsus mashqlar va jismoniy sifatlarni asosida ijro etiladi, ya'ni mashg'ulotda ijro etiladigan sifatlarni va malakalardan anchagina farq qiladi. Ushbu ishni yoritishda to'plagan ma'lumotga qaraganda, bir o'yin davomida gandbolchi o'rtacha 4955 m masofani bosib o'tar ekan. Shujumladan, 1235 m qisqa masofalarga, 3733m uzoq oraliqlarga yugurish to'g'ri keladi.

Har bir hujum harakatida 5-10 m, himoya harakatida 3-5 m dan masofa bosiladi. Maydonda harakatlanish tezligi va masofa gandbolchilarning o'yin funksiyalariga bog'liqligi ayon bo'ldi. Bir o'yin davomida 44,12 marta hujum qilinsa, bir bora hujumga o'rtacha 28,3 sek vaqt ketar ekan, 388 tadan 548 tagacha to'p uzatish 19 dan 24 holatgacha to'pni urib yurish va 31 tadan 37 tagacha darvozaga to'p yo'llanar ekan. Qizig'i shundaki, 12-14 yoshli gandbolchilarning tezkorlik jismoniy sifatlarni rivojlanganlik malakasi qancha yuqori bo'lsa, ular shuncha to'p bilan yugurish harakatlarini kam bajarar ekan. Bu yosh gandbolchilarning bir-biriga tez va aniq to'p uzatish bilan harakat qilishlari evaziga amalga oshirilishi

oshkor bo'ldi. Yuqorida qayd qilingan malakalarning soni, texnik qiymati, shiddati va aniqliligi tezkorlik jismoniy sifatlarning qanchalik shakllanganligi va ixtisoslashganligiga bog'liqligi asoslandi. Yuqorida qayd qilingan nazariy g'oyalar va uslubiy mulohazalar mazkur ish mavzusini tanlashga va shu yo'nalish bo'yicha 12-14 yoshligandbolchilar ishtiroki bo'yicha pedagogik tajriba o'tkazishga da'vat etdi. Olib borilgan kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, 12-14 yoshli gandbolchi bolalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida maxsus mashqlar va jismoniy sifatlarga oid ko'rsatgichlar pedagogik kuzatishdan avval deyarli bir xil darajada ekanligi kuzatildi. Ma'lumki, gandbol bo'yicha tavsiya etilgan BO'SM dasturida shu yoshdagi bolalarni gandbol to'garagiga qabul qilishda tanlov me'yori 30 m ga yugurish-5,5 sek, 30 m ga to'pni urib yugurish-6,5 sek ga teng. Pedagogik tajribada muddati tugaganidan so'ng amaldagi dastur asosida shug'ullangan nazariy guruhda 30 m ga yugurish 5,8 sek dan 5,4 sek gacha tezkorlik sifati yahshilandi. Tajriba guruhida bu ko'rsatgich 5,9 sek dan 5,0 sek gacha ijobiy tomonga o'zgardi. 30 m ga to'pni urib yugurish birinchi guruhda 7,0 sek dan 6,7 sek ga yahshilangan bo'lsa, ikkinchi tajriba guruhida ushbu ko'rsatgich 7,1 sek dan 6,2 sek ga o'zgardi. Demak, pedagogik tajriba davomida qo'llanilgan maxsus va tezkorlikka oid estafetali-o'yin mashqlari o'ta samarali qiymatga ega ekanligi isbotlandi. Shuni ham alohida e'tirof etish joizki, tajriba guruhiga mansub bolalarda nazorat guruhiga qaraganda nafaqat to'p urib yugurish texnikasi tez sur'atlar bilan shakllana bordi, balki ularda to'pni nishonga yo'llash texnikasi va uni ijro etish koordinatsiyasi ham progressiv yo'nalishda o'zlashtirilayotganligi kuzatildi. Yuqorida qayd etilgan pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, sinab ko'rilgan estafetali-o'yin mashqlari faqtgina maxsus hamda tezkorlik sifatlarini samarali rivojlantira qolmay, shu sifatlar asosida ijro etilishi kerak bo'lgan o'yin malakalarini ham unumli sayqal topishiga imkon yaratdi. Binobarin, jismoniy va texnik tayyorgarlikning bir-biriga chambarchas bog'liqligi va shu jarayonlarga oid mashqlar majmualarini dastlabki o'rgatish bosqichidan boshlab bir-biriga birikkan holda qo'llash texnologiyasi o'zining nazariy-ilmiiy va amaliy-uslubiy jihatlaridan qanchalik dolzarb ekanligiyana bir bor o'z isbotini topdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кобилжонов К. Роль семьи в обучении детей национальной борьбе кураш //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 9-2 (87). – С. 67-69.
2. Fazliddinov F., Kobiljonov K. Ideya sovershennoy lichnosti v trudax mysliteley vostoka //Nauchno-metodicheskiy jurnal (MANPO). – 2020. – T. 1. С.100-103.
3. Кобилжонов К. К., Фазлиддинов Ф. С., Фозилова З. Ж. Идея совершенной личности в трудах мыслителей востока // Педагогическое образование и наука.– 2020.– №.1.– С. 100-103.
4. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Ж., Кобилжонов К. К. Высокая

духовность основа экологической культуры //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 5-8.

5. Mamurov B. et al. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students //III International Scientific Congress Society of Ambient Intelligence 2020 (ISC-SAI 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 347-353.



**AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI VA ROSSIYANING O'RTA OSIYO, SHUNINGDEK O'ZBEKISTONGA NISBATAN SIYOSATI  
(1991-2000)**

**Jabborov A.A**  
*BuxDU magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada SSSR parchalanganidan keyin geostrategik jihatdan muhim mintaqa hisoblanmish O'rta Osiyo va uning qoq markazida joylashgan O'zbekiston davlati bilan AQSh va Rossiyaning 1991-2000-yillarda olib borgan tashqi siyosiy harakatlari tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *SSSR parchalanishi, Jahon Savdo Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, GUUAM, Xorijiy investitsiyalar.*

SSSR parchalanganidan keyin Rossiya juda zaif davlatga aylanibqoldi. Ayni damda u o'zining bepoyon yerlarini yo'qotib borardi. Rossiyaning o'sha vaqtdagi prezidenti Boris Yelsin mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz va qashshoqlik bilan kurashishi kerak edi. Yelsin mamlakatda G'arbona siyosat yurita boshladi va mamlakatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun G'arb modelini qabul qilishga o'tila boshlandi. Aynan shu davrda AQSh va Rossiya o'rtasida yadroviy quolsizlanish to'g'risida bitim imzolandi, shuningdek Rossiya va Nato munosabatlari yaxshilandi. Rossiya Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish sari qadam tashladi va 2001-yilda uning to'liq a'zosiga aylandi. Bundan tashqari BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolik maqomini qayta qo'lga kiritdi. Rossiyadagi qator siyosatchilar Rossiyaning xalqaro mexanizmning bir bo'g'iniga aylanishi, 1997-yilda G-8 ga a'zo bo'lgani va G'arbga yaqinlashuvini keskin tanqid ostiga olishdi. Ayni shu tanqidlar, Yangi mustaqil davlatlarga nisbatan Rossiya tashqi siyosatining asosiy maqsadini belgilab berishi va Amerika nisbatan qarshi pozitsiyani egallashini namoyon etdi[1]. Ayni shu voqealar oqibatida Yelsin NATO va AQShdan uzoqlashib, NATO ni sharqqa tomon kengayib borishini tanqid qila boshladi. Bundan tashqari Kavkaz va O'rta Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashga kirishdi.

O'rta Osiyoda o'z pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida Rossiya 1991-yil 8-dekabrda Mustaqil Davlatlar Tashkilotini tuzdi. 1991-yil 21-dekabrda Boltiqbo'yi davlatlaridan tashqari barcha sobiq sovet respublikalari, shuningdek Ukraina va Gruziya ham bu hujjatni imzoladi. Markaziy Osiyoning beshta davlati (jumladan, betaraflik siyosatini yuritgan Turkmaniston 2005-yilda to'liq a'zolikdan chiqqan va hozirda kuzatuvchi davlat), Ozarbayjon, Belarus va Armaniston ham MDH tarkibiga kiritilgan[2].

Amerika O'rta Osiyoga nisbatan o'z siyosatini 1994-yil 10-11-yanvar kunlari Brusselda bo'lib o'tgan sammitda qabul qilingan NATOning "Tinchlik bo'yicha hamkorlik" dasturi asosida boshladi. Markaziy Osiyo davlatlarining qo'shilishi bilan

Dastur ishtirokchilari soni o'sha yilning o'zida 22 taga yetdi, qaysiki Tojikiston 2002-yilda bu dasturga a'zo bo'lgan. NATO ning "Tinchlik bo'yicha hamkorlik" dasturi asosida, 1996-yilda AQSh, Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston o'tasida xavfsizlik bo'yicha hamkorlik bo'yicha "Markaziy Osiyo Batalyoni" deb ataluvchi harbiy ittifoq shakllantirildi. Bu ittifoqning bosh binosi Qozog'istonning Jambil viloyatida joylashgan edi. Ammo ko'p vaqt o'tmay 2000-yilda ittifoqning samaradorlikka erishish imkoni bo'lmagach, bu ittifoq to'xtatildi. Ittifoq faoliyati KAZBAT nomi ostida Qozog'iston ishtirokida davom ettirildi [3]. Amerikaning mintaqada mavjudligidan xavotirga tushgan Rossiya, u bilan kuchlar muvozanatini saqlash maqsadida 1996-yilda Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan birgalikda "Shanxay beshligi" ni tashkil etdi. 2001-yilda O'zbekistonning qo'shilishi bilan bu beshlik "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" ga aylandi. Bu tashkilotning asosiy maqsadi – tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar chegarasida xavfsizlikni ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Bu ittifoq xalqaro jamiyat, ayniqsa AQSh tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlariga qarshi tuzilgan deb hisoblandi. 2007-yil 16-avgustda Bishkekda bo'lib o'tgan sammitda Rossiya prezidenti Vladimir Putin tashkilotning asosiy vazifasini aniq ochiqlab shunday dedi: "Bir qutblilik dunyoning bo'lishi imkonsiz".

AQShga qarshi qo'yilgan birinchi jiddiy qadam bu 2005-yilgi SHHT sammitida sodir bo'ldi. Ayni bu jarayon Amerikaning O'rta Osiyodagi qo'shinlarini olib chiqib ketishga bergan qarori doirasida sodir bo'ldi. Ammo Amerikaning O'zbekistondan qo'shinlarini olib ketishga bergan qarori sammit tufayli emas, balki Andijon voqealariga nisbatan AQShning salbiy reaksiya sababli va O'zbekiston hukumatining qat'iy talabi bilan sodir etildi [4].

O'rta Osiyoda qarama-qarshi guruhlariga bo'linish uchun olib borilgan raqobat AQShning qo'llovi bilan davom ettirildi va bu 1997-yilda Rossiyaga qarshi tuzilgan GUUAM tashkilotini yaratilishiga olib keldi. Ushbu tashkilot AQSh, Gruziya, Ukraina,

Moldova va Ozarbayjon davlatlari tomonidan mamlakatlar suvereniteti, hududiy yaxlitlik, chegaralar daxlsizligi, inson huquqlari va demokratiyani himoya qilish maqsadida tashkil etildi. Turli bloklar ishtirokchisi bo'lgan O'zbekiston ham 1999-2005-yillarda ushbu institut a'zosi hisoblangan. O'zbekiston 2005-yilda bu tashkilotni tark etishga qaror qildi, qachonki Amerika tomonidan hukumatga qarshi kuchlar qo'llab quvvatlana boshlagach. Markaziy Osiyoda Amerika va Rossiyaning o'zaro raqobati ketayotgan bir jarayonda, Xitoyning mintaqadagi ta'siri sezilarli darajada osha boshladi. Rossiya va Xitoy prezidentlari Putin va Si Szin Pining "Rossiya-Xitoy" siyosiy sherikchiligining yo'nalishlarini belgilash yana qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi. Rossiya va Xitoy o'rtasida munosabatlarni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlar ulkan bo'lsada, m'lum bir o'ta muhim bir qator masalalarda manfaatlar kesishuvining mavjudligi va ikki tomonlama yondashuvlarning yaxshi tashkillashtirilmaganligi ba'zan ikki davlat o'rtasida bahs munozaralarga sabab bo'la boshladi [5]. Rossiya va Xitoy munosabatlarining uyg'unligi asosan ikki davlatning ham AQShga bo'lgan munosabatlarida mujassam edi. Xitoy o'z ta'sir doiralari kengaytirishga harakat qilayotgan edi. Xitoy ta'sir kuchining global miqyosda o'sishi

Rossiya siyosiy doiralarda katta muvaffaqiyatni keltirib chiqarib chiqardi. Rossiyaning ko'plab siyosiy sharxlovchilari Xitoyning kuchayib borishi kelajakda Rossiya manfaatlariga katta xavf tug'dirishi mumkin degan fikrda edilar. Rossiya Amerikaga qarshi Xitoy aloqalarni yaxshilash bilan birgalikda, yashirin tarzda Xitoyni tiyib turish choralarini ham ko'rayotgan edi. Rossiyaning 2000-yillar davomida olib brogan ikki yoqlama siyosati natijasida, asta-sekinlik bilan sezilarli darajada Xitoyga iqtisodiy va energiya borasida tobe bo'la boshladi.

Buning natijasida Rossiya Xitoydan uzoqlashib, Amerika va G'arb tomon intila boshladi va ko'p tomonlama tashqi siyosat, ya'ni ayrim masalalarda Amerika bilan, ayrimlarida esa Xitoy bilan hamkorlik qila boshladi [6].

1991-2000-yillardagi Amerikaning O'rta Osiyoga nisbatan siyosati 2001-yilga nisbatan kuchsiz bo'lgan. Bu davrdagi Amerikaning asosiy roli O'rta Osiyo davlatlariga iqtisodiy va harbiy jihatdan yordam ko'rsatish bo'lgan. Amerikaning mintaqaga iqtisodiy yordami asosan qarzlarni va savdo-moliyaviy hamda sug'urta kompaniyalari tomonidan kafolatlangan tarzda moliyalashtirilgan. Bularga Amerika Import va Eksport Bank (Eximbank), Xorijiy xususiy investitsiya kompaniyalari (OPIC), Amerika qishloq xo'jaligi departamenti (USDA) hamda AQSh xalqaro rivojlanish davlat agentligi (USAID) [7].

**JADVAL 1. 1992-1999 Tijorat moliyasi va Sug'urta bo'yicha yordam (million dollarda).**

Sarmoya turi	Qozog'iston	Qirg'iziston	O'zbekiston	Tojikiston	Turkmaniston
Eximbank	188,90	-	1243,8	-	503,8
OPIC	132,63	303,5	314,45	3,7	5
USDA	3,80	-	49,3	-	4,9
UMUMIY	325,33	303,5	1607,55	3,7	513,7

Amerikaning 1991-2000-yillar davomida O'rta Osiyo davlatlariga bergan moliyaviy ko'magi O'rta Sharq davlatlariga bergan yordamidan kamroq edi. Amerika va Rossiya O'rta Osiyo mintaqasining geostrategik jihatdan muhim hudud ekanligini anglashgach, ular bu mintaqaning energiya tarmog'iga investitsiya kirita boshlashdi.

Rossiyaning Lukoil, Rosneft, Gazprom kompaniyalari, Amerikaning esa Chevron, Exxon mobil hamda Konoko Filips kompaniyalari Markaziy Osiyo energiya tarmog'ida faoliyat yurita boshladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Kamalov, Ilyas (2011). "Rusya'nin Orta Asya Politikasi" (Russia's Central Asian Policy). *Inceleme Arastirma Dizisi* No. 02: 28-32.
2. Vorobyov, Vladislav V. (2011). "Istoriya SNG: Etapi Formirovaniya Sodrujestva Nezavisimyh Gosudarstv v 1990'e Gody" (History of CIS: Stages of Formation of the Commonwealth of Independent States in the 1990s). *Vestnik Chelyabinskogo Gosudarstvennogo Universiteta* 34(249): 90-96.

3.Lamulin, Murat (2006). “Tsentral'naya Aziya v Zarubezhnoy Politologii i Mirovoy Geopolitike” (Central Asia in Foreign Political Science and World Geopolitics). *Centralnaya Aziya v XXI Stoletiya* 2006: 248.

4. Danilovich, Maria (2011). “Shanhayskaya Organizaciya Sotrudnichestva i Aziatskaya Bezopasnost” (Shanghai Organization Cooperation and Asian Safety). *Slova Maladym Vuchonym* No. 7: 96-102

5.Weitz, R., 2008. China–Russia Security Relations: Strategic Parallelism without Partnership or Passion? Strategic Studies Institute, US Army War College, Carlisle Barracks, PA. Available at: <http://www.strategicstudiesinstitute.army.mil/pdf/files/pub868.pdf> (accessed 20.12.11.)

6.Kim, Y., Blank, S., 2013b. Same bed, different dreams: the peaceful rise of China and Sino-Russian Rivalry in Central Asia. *The Journal of Contemporary China* 22 (81).

7.Cagri, Erhan (2004). “ABD'nin Orta Asya Politikolari ve 11 Eylul'un Etkileri” (US Central Asian Policies and the Effects of September 11). *Uluslararası İlişkiler* 1(3): 126-127.

## ЗЎРАВОНЛИК ТУШУНЧАСИ ВА ТУРЛАРИ

Шамшетова Зулхумар

Бердибаев Сардор

*Қорақалпоқ давлат университети Юридика факультети*

**Аннотация:** *Ўзбекистон Республикасининг қомуси – Конституцияда инсон ҳуқуқлари белгилаб қўйилган ҳисобланади. Бугунги кунга келиб, инсоннинг шахсий, жисмоний, рухий ва жинсий ёки иқтисодий таъсир кўрсатиш орқали таҳдид қилиш каби ижтимоий хавфли қилмишлар содир этилиши ҳолатлари ортиб бормоқда. Ушбу мақолада, шу турдаги ғайриқонуний ҳаракатларининг яъни зўравонлик тушунчаси турлари ҳақида сўз олиб борилган.*

**Калит сўзлар:** *зўравонлик, хотин-қизлар, жисмоний таъсир, рухий таъсир, жинсий ёки иқтисодий таъсир, жиноят, жиноят ҳуқуқи, жиноий жавобгарлик.*

Дунёдаги барча давлатларнинг миллий қонунчилигида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, хусусан шахснинг ҳаёти, соғлиғи, шаъни ва кадр-қимматини турли жиноий тажовузлардан ҳимоя қилишга алоҳида аҳамият берилган. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида “инсоният оиласининг ҳамма аъзоларига хос кадр- қиммат ва уларнинг тенг, ажралмас ҳуқуқларини тан олиш эркинлик, адолат ва ялпи тинчлик асоси эканлиги” эътироф этилган.

Зўравонлик — хотин-қизларга нисбатан жисмоний, рухий, жинсий ёки иқтисодий таъсир ўтказиш ёки бундай таъсир ўтказиш чораларини қўллаш билан таҳдид қилиш орқали уларнинг ҳаёти, соғлиғи, жинсий дахлсизлиги, шаъни, кадр-қиммати ва қонун билан ҳимоя қилинадиган бошқа ҳуқуқлари ҳамда эркинликларига тажовуз қиладиган ғайриҳуқуқий ҳаракат (ҳаракатсизлик).

Зўравонликнинг кўринишлари турлича бўлиб, Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида” Қонунида зўравонликнинг тўрт асосий тури белгиланган:

Жисмоний зўравонлик;

Рухий зўравонлик;

Жинсий зўравонлик;

Иқтисодий зўравонлик.

Жисмоний зўравонлик Оғирлиги турли даражада бўлган тан жароҳатлари етказиш, хавф остида қолдириш, ҳаёти хавф остида қолган шахсга ёрдам кўрсатмаслик, зўравон- лик хусусиятига эга бошқа ҳуқуқ- бузарликлар содир этиш, жисмоний таъсир ўтказиш ёки бундай таъсир ўтказишнинг ўзга чораларини қўллаш билан таҳдид.

Руҳий зўравонлик Хотин-қизларни ҳақоратлаш, уларга тухмат қилиш, таҳдид қилиш, уларнинг шаънини, қадр-қиммати-ни камситиш, репродуктив соҳада назорат қилиш, ўз хавфсизлиги учун хавотир уйғотган, ўзини ҳимоя қила олмасликка олиб келган ёки руҳий соғлиғига зарар етказган ҳаракат (ҳаракатсизлик).

Жинсий зўравонлик Хотин-қизларнинг розилигисиз шаҳвоний хусусиятга эга ҳаракатлар-ни содир этиш, шунингдек зўрлик ишлатиш ёки зўрлик ишлатиш билан таҳдид қилиш ёхуд аёл жинсидаги вояга етмаган шахсларга нисбатан ахлоқсиз ҳаракатлар содир этиш орқали учинчи шахс билан жинсий алоқа қилишга мажбурлаш.

Иқтисодий зўравонлик Хотин-қизларнинг нормал яшаш ва камол топиш учун озиқ-овқат, уй-жой ҳамда бошқа зарур шарт-шароитлар билан таъминланишга бўлган ҳуқуқи-ни, мулк ҳуқуқини, таълим олиш ҳамда меҳнатга оид ҳуқуқини амалга оширишни чеклашга олиб келадиган ҳаракат (ҳаракатсизлик).

Зўравонлик содир этилиши. Руҳий, жисмоний ёки бошқа турдаги зўравонлик авж олиб, қаттиқ ғазаб, таҳдид, қўрқитиш билан биргаликда амалга оширилади. Инсон ҳуқуқлари бўйича умумжаҳон декларацияси, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар бўйича халқаро келишув ҳамда Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар бўйича халқаро келишув оилани жамият асосидаги гуруҳ деб тан олади ҳамда шахсни оиладаги зўравонликлардан ҳимоя қилади.

Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида»ги қонуни мақсади хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликнинг барча шаклларида ҳимоя қилиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланганларга давлат ҳимоясини тақдим этиш мақсадида ички ишлар органларининг таянч пункти профилактика (катта) инспектори томонидан ҳимоя ордери берилади.

Қонунни 23-моддасида Ҳимоя ордери бериш тартиби назарда тутилган.

Ҳимоя ордери - тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчига давлат ҳимоясини тақдим этувчи, хотин-қизларга тазйиқ ўтказган ёки уларга нисбатан зўравонлик содир этган шахсга ёхуд бир гуруҳ шахсларга нисбатан ушбу Қонунда белгиланган таъсир кўрсатиш чоралари қўлланилишига сабаб бўладиган ҳужжат. Ҳимоя ордерида қуйидагилар кўрсатилади:

у расмийлаштирилган сана ва жой;

уни расмийлаштириш учун асос бўлиб хизмат қилган ҳолатлар;

тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчининг ҳамда тазйиқ ўтказган ёки зўравонлик содир этган шахснинг фамилияси, исми ва отасининг исми, туғилган санаси ва жойи, касби ҳамда яшаш жойи;

Ҳимоя ордерида тазйиқ ва зўравонликдан жабрланувчининг судга мурожаат қилиш ҳуқуқи тўғрисидаги, тазйиқ ўтказган ва зўравонлик содир

этган шахсинг ҳимоя ордери талабларини бажармаганлик учун маъмурий жавобгарлиги ҳақидаги маълумот кўрсатилади.

Зўравонликни олдини олиш ва зўравонлик содир этган шахсларни жавобгарликка тортиш жараёни давомида ички ишлар ходимлари жабрланувчининг хавфсизлигини ва ҳимоясини таъминлаши, унга зарур ёрдам кўрсатиши ва йўналтириши, маълумот алмашилишини ва барча босқичларларни мувофиқлаштириб бориши зарур.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 2 февралдаги «Хотин-кизларни куллаб-қувватлаш ва оила институтини мустахкамлаш соҳасидаги фаолиятини туюдан такомиллаштириш чоратадбирлари туғрисида» ги ПФ-5325-сонли Фармони.

2. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948.й 10 декабрь) // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар.- Тўплам. Т: Адолат, 2004.

3. Ниёзова С.С. Шахста қарши зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятларнинг виктимологик профилактикаси. Монография. –Т.: ТДЮУ, 2017. – Б. 91

4. Кутыбаева, Е. Д., Утемуратова, С. Ш., Сапаров, Д. Т., Жарекеев, Б. Б., & Бабанов, Ш. А. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ПЕРЕКРЕСТКЕ СМЕНИ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕЖИМОВ. Интернаука, (37-1), 53-56.

## SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA INSONIY FAZILATLAR VA MUHABBAT MASALALARI

**Raxmatova Hamida Ismatillo qizi**

*Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi*

*Tel: +998 97 551 17 91*

*e-mail: doston.pardayev. @bk.ru*

**Annotatsiya:** *Shukur Xolmirzayev XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchidir. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan o'zbek xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega. Sh.Xolmirzayev J.London, E.Xeminguey, S.Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Maqolada Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi badiiy mahorati uning tabiat va inson munosabatlari, insoniy fazilatlar masalalari aks etgan hikoyalari orqali tadqiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Insoniy fazilatlar, betakror epizod, falsafiy hikoya, yoshlik, yoshlar psixologiyasi, personaj, badiiy ifoda.*

Har qanday asar hajman kichik yoki katta bo'lishidan qat'iy nazar mukammal xarakterlari , xotiraga muhrlanib qoladigan betakror epizodlari bilan adabiyot maydonida voqea bo'ladi, ya'ni umrboqiylik maqomiga erishadi. Shukur Xolmirzayev ana shunday maqomga erishgan hikoyalardan biri "Tanholik" dir. Hikoyada bashariyat murabbiylaridan biri, "O'n to'qqizinchi asrning eng murakkab shaxslaridan biri" L.N. Tolstoy haqida. Asarda ulug' adibning umr so'ngidagi alamli o'ylari, iztiroblari, falsafasi-yu donishmandligi mohirona tasvirlangan. Inson shaxsi uning taniga emas, ruhiyatiga taalluqlidir. Hikoyani o'qib Shukur Xolmirzayev va Tolstoy o'rtasida ruhiy yaqinlikni ko'rish mumkin. Adabiyotshunos Normat Yo'ldoshev aytganidek, Shukur Xolmirzayev ham shaxsiyati butun ijodkor edi. Yozuvchining ko'pgina hikoyalari hajmi kichik, lekin salmog'i katta. Masalan: "Notanish odam" hikoyasini olaylik. Hikoya "Ovga borayotgan edim, havo aynidi, "Bahor havosida, bir sevalab o'tar", deb ketaverdim... Turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan o'rta bo'ly bir kishi eshagining ayilini bo'shatardi..." Shu o'rinda adibning hikoya boshidanoq o'quvchini ergashtirib ketish mahoratiga qoyil qolish kerak. Notanish odam kamarga kirgan ovchi yigit oldiga borini to'kib tashlaydi. Lekin yigit ko'nglida unga nisbatan gumon kuchayadi. Kamarga notanish odam bir quchoq o'tinni ko'tarib kirib "isina bering" deydi. Yigit esa olovini minnat qilyapti deb tushunadi. Birozdan so'ng tashqariga chiqib notanish odamning daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shoxshabbalarini terayotganini ko'radi va



bu o'tinni uyiga olib ketadi deb o'ylaydi. Ko'p o'tmay yigit o'zining shubhali xayollaridan uyalib ketadi. Chunki u odam o'tinni olib ketish uchun emas, boshqa bir yo'lovchilar sovuq havoda o't yoqib isinishlari uchun tashib kelgan ekan. Kichik hajmli bu hikoyaning yozilganiga ancha bo'ldi. Bugun zamon o'zgardi, zamoni o'zgartirgan boshqa odamlarga qo'shilib, ko'pchilik o'zgardi. Lekin haligacha faqat o'zini emas, balki boshqalarni ham o'ylaydiganlar, buning uchun o'zini o'tga-cho'qqa uradigan insonlar ham bor! Bu hikoya menga gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening "Kukaracha" qissasini eslatadi. Qissadagi Kukaracha ham Notanish odamga o'xshab odamlarga ta'masiz, beg'araz yordam beradi, evaziga hech narsa kutmaydi va buni o'zining insoniy burchi deb biladi. To'g'ri, hayotda yaxshi insonlar kam, lekin, nazarimda oz bo'lsa ham Kukaracha va Notanish odamlardek insonlarning hayotda borligi uchun jamiyatda muvozanat saqlanib turibdi. Asarning ahamiyati ham aynan mana shunda. Shukur Xolmirzayev haqiqiy, professional yozuvchi edi. Ayniqsa, yozuvchining insonga umr va uning mazmuni haqida chuqur mushohada yuritish imkonini beradigan "Odam" hikoyasi juda ta'sirli. Bejiz yozuvchi bu asarni " falsafiy hikoya" deb nomlamagan. Hikoyada Rahima ismli ayolning hayoti, kechmish - kechinmalari qalamga olinadi. Rahima onasi vafotidan so'ng o'zi xohlamagan Shodmon polvonga turmushga chiqadi. Oradan to'rt yil o'tib inqilob boshlanadi, shu orada turmush o'rtog'i vafot etadi. Rahima uchta bolasi bilan beva qoladi. U el qatori kolxozga kiradi va uning faol a'zosiga aylanadi. "Qizillar kelyapti" degan ovoza tarqalib, odamlar bilan tog'ga qochadi. Kichik farzandi tog'da ochlikdan o'lib ketadi. Yillar o'tdi... Endi urush boshlandi. Yolg'iz o'g'li Abdurahim frontga ketdi. Bir yil o'tib o'g'lidan qoraxat keladi, kelini ikki bolasini ham Rahima opaga tashlab chiqib ketadi. Urush ham tugadi. Umrning shunday bir pallasini kiradi: barcha g'am-alamlar, o'rtanishlar, iztiroblarning o'rni bitadi. Bitmaydigan yara yo'q. Rahima buvi endi nevaralariga qarar, ularga o'tmishdan ertaklar aytib berar, uning butun hayoti ham ertakka o'xshardi. Lekin suronli yillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Umr poyonida ayolning esdan chiqaradigan odati paydo bo'ldi- xotirasini yo'qotdi. Ayol hayotda ro'shnolik ko'rmadi. Aslida, Rahima buvi kechirgan iztiroblarni, qiyinchiliklarni ta'riflashga va umuman so'zlarga sig'dirib bo'larmikin? So'z o'qiz. Lekin tabiatning adolatini qarangki, umr so'ngida ayolning xotirasi tiklanadi va hayotdan rozi bo'lib ko'z yumadi. Frans Fafka aytganidek "Xayotning ma'nosi shundaki, uning oxiri bor".

Shukur Xolmirzayev ijodining ma'lum bir qismini tabiat va inson munosabatlarini, insoniy fazilatlar va muhabbat masalalarini badiiy tadbiiq etishga bag'ishladi. Quyida "Bodom qishda gulladi" hikoyasini ko'rib chiqamiz. Bu hikoya hajman kichik bo'lsada, o'zida katta g'oyaviy yukni ko'taradi. Bodom qishda gulladi» (1985) hikoyasida yoshlar taqdiri, yoshlar hayoti qalamga olingan. Hikoya qahramonlari yozuvchi, tilshunos olim, injener, etikdo'z, militsiya kapitani va buxorolik bir bemor. Ular turli yoshda va turli kasb egalari. Yozuvchi mana shu sog'lom ongli, muayyan kasb egalarining qalb bisotlarini ochishga va ularning ruhan o'qiz kimsa - Nosirjondan fikrlarini ko'rsatadi. Ular bir xonada davolanishadi. Nosirjon

yangi bemor, tabiiy holki, zerikib yotgan kasallar yangi kasalni zimdan kuzatadi. Ular avvalo Nosirjonning tashqi qiyofasiga e'tibor berishadi. Qisqa vaqt ichida u atrofdagilarga o'z sirini ochib qo'yadi. Natijada bemorlar tab tortmasdan uning ustidan kulmoqchi bo'lishadi. Nosirjon samimiy, sodda yigit o'z boshidan o'tganlarini, ko'rgan voqealarini so'zlab beradi. Biz yigitni ruhiy kasal ham deyolmaymiz, garchi u xotirasini yo'qotgan bo'lsada. Uning xarakterida boshqalarda uchramaydigan odamgarchilik, mehnatkashlik, mehribonlik, hatto muomala madaniyati ham o'ta kuchli tasvirlangan. Bolalik, kasallik bois birmuncha dalliroq, savdoyiroq bo'lib qolgan Nosirjon balog'atga yetgan bir choqda kasalxonada o'zi sezmagan holda Hubbijamolga ko'ngil qo'yadi. Faollashaver, seni qiz sevib qoldi deb, aslida esa mazax qilib, ustidan kulmoqchi bo'lgan atrofida yigit tuyg'ularini yanada alangalanishiga sabab bo'ladilar. Qiz esa unga odob yuzasidangina yaxshi muomalada. Nosirjon Hubbijamolning o'z sevgani borligini bilib qoladi-yu, qalbida ochilib kelayotgan gulchechaklar nobud bo'ladi. Qarashlardagi, ruhiyatdagi yangilanish, o'zgarishlarni sovuq urgandek. Ammo, baribir, bu muhabbat baxtsiz bo'lsa-da, adashgan esa-da, bokira va musaffo tuyg'ular Nosirjonning qalb ko'zlarini ochgan edi. U odamlarni, hayotni avvalgidan tiniqroq idrok eta boshlaydi. Yillar davomida unga na devor-darmiyon qo'shni bo'lib kelganlar. Na xastaxona-yu dori-darmonlar malham bo'lmagan xasta ko'nglini ishqning bodom guli yanglig' bokira va nastarin gullari sog'aytirgandek bo'ladi. Biroq, afsuski, bu qishda ochilgan bodom gullari edi. Asar o'smir qalblarni, ilk muhabbat yoshidagilarni hayotga teranroq boqishga, musaffo tuyg'ularni ehtiyot qilishga chaqiradi. Ularni hech qachon ermakka yo'yamaslik, bu hissiyot ko'z ochgan damlardagi hayotning har bir lahzasi qadrini bilishga undaydi. Bu asar haqida U. Normatov " Sh. Xolmirzayev hikoyasida qahramonning nochor ahvol ruhiyati, xunuk raftori bo'rttirib ta'rif- tavsiya etilgan sari unga qiziqish ortadi va so'z san'atining sehrini qarangki, mana shu noxush kayfiyat uyg'otuvchi ta'rif -tavsif qarshisida qahramonning oddiy xislatlari, jo'ngina insoniy mayllari, sevgisi o'quvchi ko'ziga boshqacha nihoyatda jozibali ko'rinadi, favqulotda xarakter kasb etadi ", deb yozgan edi. Yozuvchi so'z qudratini shu qadar ustalik bilan ko'rsatganki, natijada o'quvchi beixtiyor Nosirjonga havas bilan qaraydi va mehri oshadi. Qahramon yozuvchi Nosirjon bilan asar oxirigacha birga bo'ladi. Voqealarni xolis ko'z bilan kuzatadi. Eng muhimi, u ongli ravishda Nosirjonni shavqatsiz kuzatadi. U Nosirjonning taqdirini o'zgartirishi ham mumkin edi. Inson ba'zan nochor kimsalarni ko'rib achinadi. Lekin adib Nosirjonni achinishdan ko'ra ko'proq havas qilishga moyilroq yigit darajasiga olib keladi. Hikoyaning qimmatini ham Nosirjon va Hubbijamol o'rtasidagi sevgining tantana qilgan yoki qilmaganligi bilan o'lchanmaydi. Yozuvchining mahorati shundaki, u Nosirjonning vrach qizga ko'ngil qo'yishini tasvirlash orqali uning manaviy dunyosi boyligini ko'rsata olgan. U halol, unda odamiylik ham mo'l- ko'l. U soddadil, ishonuvchanligi bilan yozuvchining ham e'tiborini tortadi. Asar tugayaptiyamki, tomoshabin yozuvchi bilan to'qnashadi. U Nosirjonning yana bir fazilatini kashf etadi. U bag'rikeng, kekni bilmaydigan yigit edi. Yozuvchi o'quvchini shunga tayyorlar ekan, bundan ham

boshqacha holat yuz berishi mumkin, ya'ni qahramonning qusuri bo'lmish yo'qolgan xotirasini qayta tiklaydi. O'quvchi ham bundan ajablanmaydi, chunki yozuvchi asar davomida shunga o'quvchini tayyorlaydi. Nosirjonning birgina aybi xat tanimasligi edi. Hubbijamolning boshqa bir yigit bilan ketishi uni larzaga soladi. Bu holdan kuchli ta'sirlangan Nosirjonning xotirasi tiklanadi. Bundan o'zi ham xursand bo'ladi. Bu xursandchilik sevgilisidan ajralishdek fojeani ham bosib ketadi. Endi u sevgi atalmish tuyg'uni tan oladi. Uning kuchini atrofdagilarga izohlashga ham harakat qiladi. Adibning ushbu asarni yozishdan ham maqsadi ana shundadir. Nosirjon qalbidagi muhabbat bamisoli qishda gullagan bodomdek edi. Chunki, qishda gullagan bodomni sovuq uradi, ya'ni mevasi bo'lmaydi. Yozuvchi Nosirjonning sevgisi tantana qilmasligini nazarda tutib, o'z hikoyasiga "Bodom qishda gulladi" deb nom qo'ygan. Bu, albatta, yozuvchi mahoratining yorqin ifodasidir.

Bundan tashqari uning "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" asari ham yoshlar ruhiyatida aks etuvchi ba'zi muammolarni muhabbat tuyg'usi orqali ifodalab beradi. Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub bo'lgan ushbu "O'n sakkizga kirmagan kim bor" asari qissa janrida, 1964-yilda yozilgan. Shukur Xolmirzayevning «O'n sakkizga kirmagan kim bor?» qissasi o'tgan asrning oltmishinchi yillarida yozilgan o'zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan sanaladi. Qissa yigirma besh yoshli yozuvchiga o'zbek kitobxonlari orasida katta shuhrat keltirgan. Ushbu mashhur muhabbat qissasini o'qimagan, hech bo'lmaganda nomini eshitmagan kitobxon yosh-u qari kam topiladi. Muhabbat, oqibat, adashish va qismat, hayotga intilish va yoshlar xarakterining chiniqishi muammolariga bag'ishlangan bu qissa, mana, deyarli yarim asrdan buyon, yoshlar tomonidan sevib o'qiladi. Bu qissa hayotga chanqoq g'o'r yoshlarning kechinmalari haqida Asarda avval qaxramonlarni bolalik beg'ubor yillari ularning hayotidagi o'zgarishlar ko'rsatiladi voqealar rivojida biz ularning o'quvchilik yillariga o'smirlikdagi muammolarga guvoh bo'lamiz Qahramonlarimiz shoshib o'ylamasdan qaror qabul qilishi, kichik ikir-chikirlardan ham favqulotda muammo yasashi bilan bizga 16-17 yosh paytlarimizni eslatib yuboradi. Shu bilan birga asardan kommunistik tuzum nafasi kelib turadi. Milliylik emas g'arbcha qarashlar ovropaga taqlid ham bor va nazarimda aynan shu narsa yoshlarni adashishga olib kelgan Asar so'ngi mavhum yakunlangan Fikrimcha muallif hulosani o'quvchi ihtiyoriga qoldirgan Qahramonlarimiz ulg'ayib hayotni past-balandini ko'rib jiddiy o'ylab to'g'ri tanlov qilishsa kerak. Yuksak badiiy asar haqqoniy hayot aksidir. Shuning uchun ham o'quvchi unda 'ozini topadi, o'zining aksini ko'radi, hayajonlanadi, quvonadi, yig'laydi, iztirobga tushadi. Bir so'z bilan aytganda asarqahramonlari bilan yashaydi. Taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning ushbu qissasi o'quvchi qalbiga ana shu tarzda kirib boradi. Asar quyidagicha tarzda boshlanadi: Jamshid uyg'onib ketib, yonini paypasladi - onasi yo'q, hali ham majlisdan qaytmapti. Yig'lagisi keldi-yu, qorong'i uyning sukunati bosib qo'rqdi. Sekin derazaga qaradi. Laxtak-laxtak qora, ho'l bulutlar bog' etagi tomon osilib borar, ular orqasidan sarg'ayib oy ko'rinardi. "Tip-tip" tomchi tovushi keldi. So'ng shamol tomorqadagi daraxtlar-ni silkitdimi, tom ustiga shovdirab

yomg'ir suvi to'kildi. "Yomg'ir tinipti-da", deb o'yladi Jamshid va yana tashqa-riga quloq tutdi...

Xulosa o'rnida shuni aytil kerakki, yozgan asarlarining nafaqat salmog'i, balki til va uslub go'zalligi, original obraz va yorqin xarakterlar yaratish mahorati bilan Shukur Xolmirzayev milliy nasrimizda tamomila yangicha bir yo'nalishga asos slogan ulkan adibdir. Yozuvchi ijodini e'tibor bilan kuzatsak, u avvalo qahramon portretini jonli tasvirlashda tengsiz bo'lganligini, shu bilan birga ,qahramonlarning ko'ngil kechinmalarini, ruhiy dunyosini mahorat bilan tasvirlaganini ko'rish mumkin. Xalq hayotini, uning psixologiyasini, o'y-kechinmalarini, o'zbekona olamini mukammal bilgani uchun ham tirik obrazlar, qahramonlar yarata oldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xayrullayeva Nodira Baxtiyor qizi, Atabayeva Go'zal Farxodovna "Shukur Xolmirzayevning hikoyachilikdagi mahorati, "bodom qishda gulladi" hihoyasi talqini", International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from, 9th -ICARHSE, Dec. 28th 2022, New York, USA, <https://conferencea.org>

2. Aliyeva E'zoza Zokirjon qizi, "O'zbek hikoyachiligida Shukur Xolmirzayev ijodi" , "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali" 13-son, 20.11.2022 402-b

3. G. N. Tavaldieva "Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini", Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 1051 [www.ares.uz](http://www.ares.uz)

4. Xo`janova Nasiba Choriyevna, G`oibova Nigina Shamsiddin qizi "Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson taqdiri muammosi", Science and innovation international scientific journal, ISSN: 2181-3337, 2022 № 2 158-bet

5. Toshboyev.O., "Adabiy zamondosh", „G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi , T:2018-134-135b

## MILLIY QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI O‘ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI MUSTAHKAMLASH ISTIQBOLLARI

**Solijonov Muhammadaziz Shokirjon o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi*

Milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish orqali O‘zbekiston kapital bozorini mustahkamlashda zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalangan holda ko‘plab moliya bozori instrumendan foydalanish uchun yetarli darajadagi huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, bunda aholimizning turmush darajasi, yashash tarzi, urf-odatlar, qadriyatlarimizga mos kelishi ham muhim rol egallaydi va bu orqali iqtisodiyotda bo‘sh turgan pul mablag‘larini moliya bozoriga jalb etishning istiqbolli imkoniyati mavjud.

Milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish orqali O‘zbekiston kapital bozorini mustahkamlashda Korporativ boshqaruv ham alohida ahamiyat kasb etadi. Korporativ boshqaruv e‘tibor talab qiluvchi murakkab jarayon ekanligini inobatga olgan xolda ta‘kidlash mumkinki, aksionerlik jamiyatidagi qatnashchilarning faoliyat jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil ziddiyatli vaziyatlarni xal etish uchun korporativ hamjamiyatning barcha ishtirokchilari o‘rtasida kelishuvlar mexanizmini shakllantirish alohida ahamiyatga molikdir.

Milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish orqali O‘zbekiston kapital bozorini mustahkamlashda Xalqaro tajribani o‘rganib chiqqan holda aytish mumkinki, Milliy qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish orqali kapital bozorini mustahkamlashda, mamlakat ichida harakatda bo‘lgan sarmoya strategik jihatdan to‘g‘ri va oqilona tashkil etilgan mexanizmlar bilan o‘zaro birdamlikni tashkil etgan holatda davlat tashkilotlari bilan bir maqsadda harakat qilsa kelgusida yuksak marralarga erisha olishi hamda bu orqali milliy qimmatli qog‘ozlar bozorining xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligiga erishish mumkin.

Mamlakatimizda Kapital bozorining tarkibiy qismi sifatida milliy qimmatli qog‘ozlar bozorining joriy holatini tahlil qilish orqali quyidagi taxlil natijalarga kelindi:

- kapital bozorida ishtirok etuvchi banklarining davlat hamda boshqa moliya institutlari orqali tartibga solish mexanizmini zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalangan holda yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi;

- tijorat banklarining kapital bozorida olib borayotgan passiv hamda aktiv operatsiyalarini yanada jonlantirish kerak;

- tijorat banklarning kapital bozorida investitsiya, qimmatli qog‘ozlar chiqarish shuningdek, dividend siyosatlarini yanada takomillashtirish lozim;

- tijorat banklari kapital bozorining professional ishtirokchisi ko‘rinishidagi faoliyatini yanada jonlantirishning istiqboli mavjud;

- tijorat banklarida korporativ boshqaruv va menejment masalalarini xorijiy tajribadan foydalangan holda yanada takomillashtirish lozim;

- tijorat banklarning kapital bozorida faoliyati samaradorligini oshirishning yuqori potentsiali mavjud.

Yuqorida keltirilgan xulosalar orqali mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan banklar ishtirokini kapital bozorida yanada jonlantirishda asosiy jihat sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

-mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan banklarning kapital bozorida ishtirokining huquqiy hamda normativ asoslarini yanada mustahkamlash;

-banklarda korporativ boshqaruv mexanizmlarini hamda samarali menejment tizimini yanada takomillashtirish.

Yuqorida o'rganib chiqilgan masalalardan kelib chiqib, Milliy qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishdagi muammolarni hal qilish yo'llarisifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

-Milliy qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda tartibga solish

-Milliy qimmatli qog'ozlar bozorida yangi moliyaviy texnologiyalardan foydalanish imkoiyatlarini ko'rib chiqish

-Milliy qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining va investorlarning manfaatlarini himoya qilishdagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish;

-Xalqaro standartlar talablariga muvofiq qimmatli qog'ozlar bozorini yanada erkinlashtirish;

-Milliy qimmatli qog'ozlar bozor barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish;

-Davlat tomonidan ipoteka obligatsiyalarini muomalaga chiqarish;

-O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlari savdosini ikkilamchi bozorlarga yo'naltirish

-O'zbekiston Respublikasida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlarni savdoga chiqarishga oid jarayonlarni yanada takomillashtirish;

-investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida korporativ tuzilmalar tomonidan to'lanadigan dividendlarga turli yutuqli o'yin yoki bomuslar berish tizimini ishlab chiqish. Ushbu jihat ko'plab kichik investorlarda Milliy qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;

-hozirda amalda bo'lib turgan moliyaviy hisobotlardan investorlarning foydalanishi imkoniyatining cheklanganini hisobga olib jahon tajribasini o'rgangan holda barcha uchun qulay bo'lgan moliyaviy hisobotlar mexanizmini ishlab chiqish. Joriy moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish korporativ boshqaruvning muhim qismi bo'lgan korporativ nazoratning samarali tashkil etilishini ta'minlaydi.

-korporativ boshqaruvni tizimli tarzda takomillashtirish zarurati paydo bo'lmoqda. Bunga esa, korporativ strategiyani samarali tashkil etish, korporativ

madaniyatni shakllantirish, moliyaviy va axborot aniqligini ta'minlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, boshqa qimmatli qog'ozlar huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik ba'zasini mustahkamlash orqali erishish mumkin.

## THE EFFECT OF THE ZINC SALT OF GLYCYRRHIZIN ACID ON THE GERMINATION PARAMETERS OF WHEAT GRAIN

**Sh. Khudayberdieva**

*Gulistan city, Syrdarya region*

*Chemistry teacher of the 16th school*

**Abstract:** *The concentration-dependent (0.5-100  $\mu\text{M}$ ) concentration (0.5-100  $\mu\text{M}$ ) of glycyrrhizin acid complex with  $\text{Zn}^{2+}$  on the germination index, photosynthetic activity, chlorophyll content, root germination of wheat variety "Krasnodar" in laboratory conditions activity and chlorophyll content were studied. Under the influence of GK-Zn complex (1-100  $\mu\text{M}$ ), a significant increase in the amount of chlorophyll in the green biomass of wheat was noted, including a maximum increase of  $112.4 \pm 5.7\%$  compared to the control at a concentration of 1  $\mu\text{M}$ .*

**Key words:** *glycyrrhizin acid, zinc complex, biomass, chlorophyll, germination rate*

The metabolic process is also related to the presence of microelements in cells and tissues. In the studies, the influence of microelement Zn on metabolism and plant productivity is noted. Accordingly, in the course of research, the use of the GK-Zn complex to increase the productivity of crops in agriculture by optimizing the indicators of the level of activity in the growth and development of wheat considered promising.

Various exogenous compounds are used to stimulate plant growth and induce resistance to abiotic factors [1,2,3]. For example, foliar application of solutions of ascorbic acid and kinetin in a certain concentration helped the growth of plants [4]. The mono ammonium salt of glycyrrhizin acid can help the germination of cotton seeds [5]. Glycyrrhizin acid compounds are reported to have multifunctional properties. Some salts of glycyrrhizin acid regulation of growth and development of wheat [6].

During the next series of research carried out in laboratory conditions, the concentration-dependent (0.5-100  $\mu\text{M}$ ) concentration (0.5-100  $\mu\text{M}$ ) of the glycyrrhizin acid complex with  $\text{Zn}^{2+}$  (GK-Zn) showed the germination index, photosynthesis activity of wheat variety "Krasnodar" in laboratory conditions. chlorophyll content, root germination activity and chlorophyll content were studied.


**EFFECT OF GK-ZN COMPLEX ON THE GERMINATION PARAMETERS OF "KRASNODAR" WHEAT VARIETY ( $M \pm m$ )**



Experience options	Benefit degree (%)	Length of the lawn (mm)	Rootlength (mm)	Weight of biomass in the case of wet (g)	Weight of biomass in the case of dry(g)
Control(distilled water)	84,1	13,13±0,55	10,04±0,43	2,004±0,32	0,201±0,03
GK-Zn ( $5 \times 10^{-7}$ M)	92,1**	14,54±0,54	10,98±0,31*	2,011±0,12*	0,208±0,01*
GK-Zn ( $1 \times 10^{-6}$ M)	95,2**	18,34±0,33**	14,13±0,45**	2,213±0,22**	0,234±0,02**
GK-Zn ( $1 \times 10^{-5}$ M)	91,3**	16,02±0,41**	14,04±0,64**	2,105±0,17**	0,228±0,02**
GK-Zn ( $5 \times 10^{-5}$ M)	90,1**	13,65±0,37*	11,12±0,23**	2,065±0,13*	0,219±0,05**
GK-Zn ( $1 \times 10^{-4}$ M)	88,5*	13,02±0,28*	10,34±0,53*	2,011±0,53*	0,213±0,03*
GK-Zn ( $1 \times 10^{-3}$ M)	85,8*	14,45±0,55**	9,43±0,54*	2,008±0,23*	0,205±0,03*

Note: represents the level of statistical reliability of the difference between the values of the experimental groups compared to the control group (\* -  $r < 0.05$ ; \*\* -  $r < 0.01$ ). Under the influence of GK-Zn in laboratory conditions of wheat variety "Krasnodar" germination rate and, in turn, root length, biomass weight in wet and dry hoalt were increased compared to the control (Table 1).

#### EFFECT OF GK-ZN COMPLEX ON THE AMOUNT OF CHLOROPHYLL IN GREEN BIOMASS OF WHEAT



In subsequent experiments, a significant increase in the amount of chlorophyll in the green biomass of wheat under the influence of the GK-Zn complex (1-100  $\mu$ M), including a maximum increase of  $112.4 \pm 5.7\%$  compared to the control, was noted at a concentration of 1  $\mu$ M (Figure 1).

#### FIGURE 1. THE EFFECT OF GK-ZN COMPLEX (10 MM) ON THE AMOUNT OF CHLOROPHYLL IN THE GREEN BIOMASS OF WHEAT VARIETY "KRASNODAR"

The amount of chlorophyll (%) is expressed on the ordinate axis. \*\* -  $r < 0.05$  compared to the control (nq3-5).

It was also noted that there is a correlation between the length of the grass of wheat, the length of the root and the amount of chlorophyll.

### REFERENCES:

1. Akula Ramakrishna and Gokare Aswathanarayana Ravishankar, 2011. Influence of abiotic stress signals on secondary metabolites in plants *Plant Signal Behav.* November 1; 6(11): 1720–1731.
2. Rehman, H., Q. Nawaz, S.M.A. Basra, I. Afzal, A. Yasmeen and F.U. Hassan, 2014. Seed priming influence on early crop growth, phenological development and yield performance of linola (*Linum usitatissimum* L.). *J. Integ. Agric.*, in press
3. Yasmeen, A., S.M.A. Basra, M. Farooq, H. Rehman, N. Hussain, H. R. Athar, 2013. Exogenous application of moringa leaf extract modulates the antioxidant enzyme system to improve wheat performance under saline conditions. *Plant Growth Reg.*, 69: 225– 233
4. Azza A.M. Mazher, Sahar M. Zaghloul, Safaa A. Mahmoud and Hanan S. Siam (2011) Stimulatory Effect of Kinetin, Ascorbic Acid and Glutamic Acid on Growth and Chemical Constituents of *Codiaeum variegatum* L. *Plants. American-Eurasian J. Agric. & Environ. Sci.*, 10 (3): 318-323
5. Akhunov.A.A., Golibenko Z., Dalimov D.N., Abdurashidova N.A., Mustakimova E.Ch., Ibragimov F.A., Akbarova G.O. (2004) Diglycyrrhinats as regulators of cotton growth. *Chemical Natural Compounds*. N1. pp. 58-61.
6. Kushiev Kh.H., Karomat Ismailova A., Dalimov N. (2013) Regulation of development of a rust of wheat using physiologically active compounds. *European sciences and technology*. Germany, 2013. Pp.71-76.

## ЎҚИТУВЧИЛАРДА ПЕДАГОГИК АРТИСТИЗМНИ ШАКЛЛАНТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

**Пиримбетов Бахыт Аллабаевич**

*Нукус давлат педагогика институтининг мақсадли таянч докторанти*  
*[pirimbetov@mail.ru](mailto:pirimbetov@mail.ru)*

**Аннотация:** *Мақолада ўқитувчининг педагогик артистизм элементларидан фойдаланиш имкониятлари, Педагогик артистизм таълим олувчилар билан алоқа ўрнатиш юртимизнинг келажаги мамлакатимизнинг интеллектуал салоҳияти, ақл-заковоти, миллий таълим-тарбия тизимини жаҳон андазалари асосида такомиллаштириш, унинг миллий заминини мустаҳкамлаш ҳамда кадрлар тайёрлашга бевосита боғлиқ.*


**Таянч сўзлар:** *дарс, педагогик артистизм, педагогик ижодкорлик, педагогик маҳорат мактаб таълими, таълим тизими, ўқув жараёни, билим, кўникма, малака, компетенция, ўқитувчи, ўқувчи, мустақил ишлаш.*

Касбий тайёргарлик сифатини такомиллаштириш, жумладан, актёрлик ифодалилиги воситаларини, аудитория диққатига таъсир этиш усуллари, ўз ҳаракатларида юқори вазифаларни қўйиш ва ҳал қилиш малакасини ва бошқаларни эгаллашда театр педагогикаси тажрибасига мурожаат қилиш ўқитувчининг ҳиссий маданиятини ривожлантириш, ўз-ўзини бошқариш усуллари эгаллаш, ихтиёрий диққат, интуиция кўникмаларини ривожлантириш ўта долзарб муаммолардан ҳисобланади [2].

**Педагогик артистизм** – педагогик ижоднинг барча босқичларида у ёки бу даражада фаолият кўрсатадиган феномен. Таълим олувчилар билан алоқа ўрнатиш, уларнинг ишончини қозониш ва шу асосда педагогик жараённинг барча шароитларини ҳисобга олган ҳолда ҳаракатланишни таъминлайдиган жисмоний ва руҳий сифатлар бирикуви.

Педагогик артистизм таълим олувчилар билан алоқа ўрнатиш, маълум маънода болаларнинг ишончини қозониш, кейин мазкур дарс, машғулотнинг барча ҳолатларини (шароитларини) ҳисобга олган ҳолда иш кўришга ёрдам берадиган маънавий ва жисмоний сифатларнинг мураккаб қоришмаси ҳисобланади [3].

Педагогик артистизм структураси икки: ички ва ташқи томондан иборат.



Юқорида баён қилинганлар далолат берадики, педагогик меҳнат шароитида педагог шахси структурасида артистизм турли, аниқроғи синтезловчилик, бойитувчилик, бошқарувчилик, ҳимоя, шакллантирувчилик ролини бажаради.

Ўз фаолиятининг юқори вазифасини қўйиш ва ҳалқилиш педагогни таълим олувчиларга мўлжалланган топшириқларга маълум дунё қараш ва ахлоқий контекст киритиш зарурати олдига қўяди (синтезловчилик роли).

Педагогнинг артистизми фаолиятда мантиқийлик ва образлиликни табиий бирлаштириш имконини беради, бу унинг шахсий намоёнликларини бойитиш ва уйғунлаштиришга кўмаклашади (бойитувчилик роли).

Ички ва ташқи меннинг эркинлигимни ҳис этиш руҳлантиради, қанот бағишлайди, ўқитувчига янги куч бахш этади, унинг кайфиятини ва ижодга илҳомланишини бошқаради (бошқарувчилик роли).

Педагогик артистизм, ўз ҳиссиёти ва кайфиятини назорат қилиш, табиий ва жонли хулқ-атвор, эркинликни ҳис қилиш педагогнинг ишончини, ўз-ўзига баҳосини оширади ва ҳимоя ролини бажаради.

Ўқитувчининг дарсда (машғулотда) эмоционаллик ва рационалликни мантиқий бирлаштириш таълим олувчига ўқув материали мазмунига янгича назар ташлаш, унда шахсан ўзи учун қизиқарли ва аҳамиятлисини топиш ҳамда таълимга нисбатан мотивацияли-қадриятли муносабатни шакллантириш имконини беради [1].

Шундай қилиб, педагогик артистизмни, унинг структураси ва функциясини, шунингдек, ўқитувчи шахси структурасидаги роли; педагог-артист меҳнатининг мақсади, вазифалари ва натижаларини кўриб чиқиш бўлажак ўқитувчининг артист бўлишга интилиши олиб келиши мумкин бўлган истиқболларни аниқ тасаввур қилиш учун муҳим саналади. Табиийки, ҳозирги шароитда ҳарбир педагог ёрқин фиодаланган артистизмга эга бўлишини хоҳлаш мушкул. Эҳтимол, келгусида, трансляциялаш мумкин бўлганлар (билимлар, малакалар ва кўникмалар) техник воситалар ёрдамида узатилади, педагогнинг асосий вазифаси эса таълим олувчи шахсини шакллантириш, унга ижодда ёрдам беришдан иборат бўлади.

Ўқувчилар умумий ўрта таълим мактабларида замонавий фан, техника, технология ва мустақил, мантиқий фикрлашнинг умумий асосларини ўрганади, ишлаб чиқариш тамойиллари билан танишади. Бошланғич синф ўқувчилари эса миллий таълим-тарбиянинг дастлабки жиҳатларини эгаллайдилар, уларнинг муайян соҳага қизиқишлари, лаёқатлари шаклланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мардонов Ш.К., Алматов Т.А. Профессиональное средство учителя// Сб. научно-метод. ст. «Формирование интеллектуального, творческого и духовного потенциала личности обучающихся в современных условиях». – Ташкент: УзНИИПН им. Т.Н.Кары-Ниязи, 2009. Ч.1.- С.93-97.
2. Русская Е. Имидж современного педагога// Мир образования. – М., 1995.- № 1.- С.91.
3. Фарберман Б.Л. Передовые педагогические технологии. – Ташкент: Фан, 2000.- 120 с.

## “INSERT” METODINI “AVTOMOBIL YO‘LLARINI LOYIHALASH” FANIDA QO‘LLASH

**Nazirov Baxtiyor O‘ktamjon o‘g‘li**

*Toshkent davlat transport universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda avtomobil yo‘llarini qidiruv va loyihalash bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘pgina zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu maqolada “Insert” metodining afzalliklari, uni qo‘llanish tartibi, qo‘llashda talab etiladigan qonun qoidalar va ushbu texnologiyadan samarali foydalanish yo‘riqnomasi keltirilgan. Shuningdek “Insert” metodini amalda bakalavr boshqichi talabalariga qo‘llash jarayoni tasvirlab berilgan.*

**Аннотация:** *Сегодня многие современные педагогические технологии используются в области специальных наук о поиске и проектировании автомобильных дорог. В данной статье представлены преимущества метод «Insert», порядок ее применения, необходимые для ее применения законы и правила, а также инструкция по эффективному использованию данной технологии. Также описан процесс применения метод «Insert» к студентам бакалавриата.*

**Annotation:** *Today, many modern pedagogic technologies are used in the field of special sciences of highway search and design. This article presents the advantages of "Insert" method, the procedure for its use, the laws and regulations required for its use, and instructions for the effective use of this technology. Also, the process of applying "Insert" method to undergraduate students is described.*

**Kalit so‘zlar:** *Pedagogik texnologiya, avtomobil yo‘llari, maxsus fanlar, an‘anaviy dars, mustaqil fikrlash, matiqiy fikrlash, takrorlash, mustahkamlash va kichik guruh.*

**Ключевые слова:** *Педагогическая технология, магистрали, специальные предметы, традиционный урок, самостоятельное мышление, логическое мышление, повторение, закрепление и малая группа.*

**Keywords:** *Pedagogical technology, highways, special subjects, traditional lesson, independent thinking, logical thinking, repetition, reinforcement and small group.*

Maxsus fanlarni o‘qitishda, yangi innavatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni olib borish yaxshi natija beradi, ya‘ni, ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni interfaol o‘yinlar orqali uyg‘unlashtiriladi. Buning natijasida O‘tiladigan mavzu talabaning ko‘z o‘ngida uzoq vaqt saqlanishi tajribada o‘rganildi. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o‘rganayotgan ba‘zi o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog‘liq hamda o‘qitish jarayonida qo‘llanishi zarur bo‘lgan o‘qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi -o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.[1]

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi. Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.[2].

Pedagogik texnologiya atamasi va bu sohadagi ilk ishlanmalar AQSH da XX asming 50-yillarida paydo bo'ldi. 15-20 yildan so'ng pedagogik texnologiya barcha rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasini qamrab oldi. So'nggi yillarda pedagogik texnologiyadan foydalanish doirasi uzluksiz kengayib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning ilk paydo bo'lish davri ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi bilan belgilanadi. Mazkur davrdagi fanning natijalari kashfiyotlar oqimlari bo'lib, ular asosida texnika va texnologiyalarning yangi avlodlari yaratildi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar o'zining o'ta murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajrala boshladi. Ishlab chiqarish usuli va shart-sharoiti uzluksiz jadal o'zgarib bordi, ta'lim tizimi oldiga yangi talablar qo'yila bordi[3].

«Insert» metodida talabalar guruhlarga bo'linadilar, guruhlar nomlanadi. O'qituvchi yangi mavzuni e'lon qiladi va har bir guruhdan yangi mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so'raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a'zolari faol ishtirok etishlarini ta'minlash maqsadga muvofiq) fikr bildiradilar. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat

yakunlangach, o`qituvchi yangi mavzu mazmuni yoritilgan matnni talabalarga tarqatadi. So`ngra shunday topshiriq beriladi:

### TOPSHIRIQ

- A. Matn bilan tanishib chiqing;
- B. Matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo`yib chiqing:
- C. matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o`z aksini topgan bo`lsa;
- D. matnda guruxlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo`lsa;
- E. matnda bildirilgan fikrlarga zid fikrlar mavjud bo`lsa;

Guruh a`zolari shaxsiy qarashlarini o`zaro o`rtoqlashadilar, guruh bo`yicha belgilar soni umumlashtiriladi.

Liderlar yordamida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi.

O`qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O`qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama-qarshilik va tushunmovchiliklarni talabalar to`g`ri hal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

Guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratadilar, ular o`rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashtiradilar).

Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan sinf jamoasida yetkaziladi[4,5].

Insert metodi Toshkent davlat transport universitetining Avtomobil yo`llarini qidiruv va loyihalash kafedrasida bakalavr bosqichi talabalariga "Avtomobil yo`llari" fanidan "Yo`l poyi va qatnov qism kengligini hisoblash" mavzusida bakalavr bosqichi talabalariga qo`llanildi. Bunda talabalarining guruh bo`lib ishlash, mantiqiy fikrlash, muammoni jamoaviy hal etish, bir necha fikrlardan to`g`ri fikrni ajrata olish kabi qobiliyatlari namoyon bo`ldi. Metod dars jarayonida quyidagi tartibda qo`llanildi:

Dars mashg`uloti boshida talabalarga o`z fikrlarini erkin bayon qilishga targ`ib qilish maqsadida avvalgi dars mashg`ulotlarini takrorlash va endi o`tiladigan "Yo`l poyi va qatnov qism kengligini hisoblash" mavzusi bo`yicha savol javoblar olib borildi. Bunda har qatnashgan bir talabaga rag`batlantirish qatnashmagan ba`zi talabalarga esa dars mashg`ulotiga targ`ib qilish maqsadida individual savollar berildi.

Talabalarga avtomobil yo`lining ko`ndalang kesimi elementlarini hisobiy avtomobil harakat sharoitidan kelib chiqib aniqlanish va SHNQ 2.05.02-07 "Avtomobil yo`llari" meyorlari bilan solishtirish haqida uslubiy ko`rsatmada belgilangan amaliy ish tushuntirib berildi.

Avval o`tilgan darslar va hozirgina o`tilgan dars jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida talabalarga tarqatma materillar tarqatilib, baholash tartibi tushuntirildi.

Talabalarni jamoaviy ishlashiga qulaylik yaratish maqsadida kichik guruhlariga bo`lindi



Guruhlarga mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari va jamoaviy fikrlab to'g'ri javobni topishlari uchun vaqt belgilandi.

Dars mashg'uloti so'ngida har bir guruh o'zi to'g'ri deb bilgan javobni asoslab tushuntirib berdi. O'qituvchi esa qisqacha tarzda har bir javobni baholadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni dars jarayoniga qiziqishini oshirish va dars mashg'ulotlarini tushunarli bo'lishi uchun zamonaviy pedogogik texnologiyalarni qo'llash zarur. "Insert" metodini qo'llash orqali talabalarining mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon eta olish va mantiqiy fikr bildirish kabi qobiliyatlari namoyon bo'lib, bilim va ko'nikmalari ortishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.A.Mamurov, M.G.Mamayunusova, R.N.Ibrohimova//Texnik ta'limda darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash//Ijodkor o'qituvchi jurnali//Farg'ona shahri, 2022-yil, 374-375 bet

2. L.R.Maxamadinova//Talabalar uchun darslarda qo'llaniladigan qulay hamda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish, amalda ularni to'g'ri qo'llay olish//science and innovation international scientific journal volume 1, 2022

3. N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva//Pedogogik texnologiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Oliy o'quv yurtlaritalabalari uchun darslik sifatida tavsuya etilgan//Tashkent – 2012, 8-bet

4. Q.X. Azizov//“Maxsus fanlarni O'qitish metodikasi”.//O'quv qo'llanma. TAYLQEI. Toshkent 2019 y,

5. <https://baxtiyor.uz/oqituvchilar-uchun-barcha-fanlardan-metodlar-toplami/>

## THE INCREASING OF INFLUENCE OF THE COMMUNIST PARTY IN THE ADMINISTRATION OF THE UZBEK SSR (THE 50S OF THE TWENTIETH CENTURY)

**Shokhjahan Rashidov**

*PhD, Senior researcher of Tashkent university of*

*Science and technologies*

*Email: [shokhjahanr@inbox.ru](mailto:shokhjahanr@inbox.ru)*

**Abstract:** *In this article, the author analyzes the history of political processes in the Uzbek SSR in the 1950s. Since that period, as a result of the growing influence of the Communist Party, the decline in the positions of the state and executive authorities has been covered by various archival documents and periodical materials.*

**Keywords:** *party, nomenclature, propaganda, ideology, control.*

Any society develops on the basis of pluralism, diversity of views. States governed by a single idea, a single political force, eventually turn into chaos and instability. In the Soviet state, due to the attempts of the Communist Party under the guise of expressing "national interests", democratic methods of governance and issues of people's power were also falsified.

The 50s of the twentieth century were characterized by a number of contradictory processes in the history of the administration of the Uzbek SSR. Firstly, the death of I. Stalin in March 1953 and the coming to power of N. Khrushchev also influenced the political processes in the Union republics. Although there were some changes in connection with the transfer of power from one person to another, the influence of the Communist Party increased. Party control over the state and executive bodies of the Uzbek SSR was strengthened.

Secondly, during this period, the political leadership of the Uzbek SSR changed 4 times. Compared to the entire period of the existence of the Soviet Union, these were the years when most of the leaders were replaced. Although these leaders were loyal to the ideas of communism and acted in its interests, they were able to present the Center with some demands on national issues. For this reason, first in 1950 U. Yusupov was brought to Moscow as the Minister of Cotton Growing of the USSR, and in 1957 N. Mukhitdinov was called to work at the Center. Both of them were among the leaders who had their own reputation and position among the Uzbek people, and who knew how to boldly say their word "at the top". Thus, the Soviet government alienated very influential cadres protecting national interests from the political administration of the republic. For comparison, we can say that from 1954 to 1960 in the political administration of the Kazakh SSR, national cadres did not approach power [1].

Thirdly, the 50s of the 20th century are one of the relatively little-studied periods in the history of Uzbekistan. It was during this period that the administrative and command system of Moscow was strengthened in the Uzbek SSR, incorrect, ill-considered decisions were made in social and economic policy. Later, this laid the foundation for serious environmental problems in Uzbekistan, such as the "cotton affair" and the "Uzbek affair".

In the early 50s of the 20th century in the Uzbek SSR, as in all Union republics, the administrative command system and the cult of Stalin's personality were deeply rooted. As a result, the political power of the party was strengthened, a dictatorial system was established that served the interests of one person. The first then political leaders of the Republic of U. Yusupov and later A. Niyazov sought to establish strong relations with the Center, to defend the interests of the Center and the republic as equally as possible. The first secretaries of the Communist Party of Uzbekistan had to work in extremely difficult conditions – under constant control and strong pressure. The policy of repression carried out by Stalin in the 30s of the 20th century against state and public figures required the leadership of the republic to be more careful about the Center, to obey the orders and instructions of the party. In addition, as a result of the repressive policy carried out during this period, the intelligentsia of the nation was subjected to severe and severe trials.

In the early 50s of the 20th century, the totalitarian system of government was strengthening, the influence of the Communist Party sharply increased, and the leaders of all economic and state bodies served the interests of the communist ideology. Party organizations have entrusted the leading communists with responsibility for all spheres of economic, social and cultural construction. Party organizations, working by administrative and command methods, limited the independence of the heads of enterprises and institutions and trade unions, stifled their initiative, destroyed the democratic aspects of their activities [2, 151].

One of the most important political positions in the system of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan was the second secretary. The second secretary is always appointed from the Center and in most cases from among the citizens of Russia. Their main task was to "supervise" the first secretaries of the CPSU Central Committee, control and inform the Center about the situation in the republic. Through this system, the leadership of the Soviet Union monitored the activities of all the Union republics and their first political leaders. The second secretaries were also responsible for maintaining the party nomenclature. That is, the question of who to appoint to any responsible positions in the republic was decided in consultation with the second secretary and the Center. It was preferable for the leadership of the Union to have more cadres of Russian or other Slavic origin in the party nomenclature than national cadres. In particular, at the 11th meeting of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan, held on September 20-23, 1952, it was noted that more than 55% [3, 451] of the executives included in the nomenclature of the Central Committee of the

Communist Party of Uzbekistan were citizens. The Center has always been concerned about the growing number of national leaders in the party, which has always been considered a political governing body. The main reason for this was that the widespread involvement of national cadres in politics could weaken centralized management.

The number of party agitators increased every year. If in 1949 there were 6,000 specially trained propagandists promoting the ideas of communism, then in 1952 their number increased to 13,689 people [4, 487].

However, the Soviet authorities did not stop there and throughout the 1950s trained more propagandists and tried to get them to the most remote areas. To this end, the activities of the departments of party education, prepared by propagandists at regional, city and district party organizations, have been strengthened.

However, the Soviet authorities did not stop there and throughout the 1950s trained more propagandists and tried to get them to the most remote areas. To this end, the activities of the departments of party education, prepared by propagandists at regional, city and district party organizations, have been strengthened. If in the 1954/55 academic year 140,161 people studied in the centers of party education, then in the 1958/1959 academic year this figure increased to 208,284 people [4, 481].

In order to further strengthen party control, the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan replenished its ranks with new members. If in 1952 116,940 members of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan were registered, then in 1959 - 188,400 people [5, 852]. Thanks to this, the number of communists in society has increased, the ranks of heads of state and economic management bodies have been replenished.

During this period, the policy of further "strengthening" the structure of the Communist Party intensified. In particular, special attention was paid to the process of accepting the population of villages and collective farms as members of the party and thereby increasing the number of communists. From 1955 to 1957, the number of rural party organizations increased by 4,000 people. If in 1955 there were 594 party organizations in the collective farms of the republic, in which there were about 100 communists, then in 1957 this figure increased to 781 [6, 462].

